



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

CHAQALOQLAR DISPLAZIYASI: BELGILARI VA DAVOLASH

Yuldashova Nozima Baxodir qizi

2-son Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
Hamshiralik ishi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya:

Displaziya (due... va yun. plasis — hosil bo'lish, o'sish) — embriogenet va tugilgandan keyingi davrda a'zo, to'qima yoki tana qismlarining noto'g'ri rivojlanishi. Hozirgi vaqtida dizplaziya xavfli o'smalar rivojlanishidan oldin epiteliy hujayralarining tartibsiz o'zgarishlarini, ya'ni hujayralar va umuman to'qima kompleksining neoplastik (o'sma to'qimalari rivojlanishiga tomon yo'nalgan o'sish), normadan tashqari, o'sma hosil bo'lishiga moyil o'zgarishini anglatadi. Ilgari Dizplaziya faqat yassi epiteliy hujayralariga xos o'zgarish deb hisoblanar edi, hozirga kelib bu jarayonni morfologik jihatdan chuqurroq o'rganish u boshqa to'qima hujayralari, mas, prizmatik, ichki sekret bezlari epiteliysi va hokazoga ham taalluqli ekanligi ma'lum bo'ldi. Hujayra va to'qimalardagi o'zgarishlarning og'irengilligiga ko'ra, displaziyaning 3—4 darajasi tafovut qilinadi. Uning eng og'ir xili "malignizatsiya" — butun to'qimani qoplab oladi, hatto o'smaning invaziysi bilan tugashi ham mumkin. Displatik o'zgarishlarning tobora kuchayib, rivojlanib borishi pirovardida o'sma paydo bo'lishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: displaziya, anomaliya, genetic omil, fizioterapiya

Toz-son bo'g'imi displaziysi – 1860-ori 'g'imlarning rivojlanish davrida tug'ma buzilishi. Displaziya

Ma'lumotlarga ko'ra, displaziya tayanch-harakat tizimi kasalliklarining eng keng tarqalgan tug'ma patologiyalardan biri hisoblanadi, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning 3 foizida uchraydi. Shuningdek, qizlarda o'g'il bolalarga nisbatan 1860-son baravar ko'proq bo'ladi. Kasallik bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Kasallikni kelib chiqish sabablari:

- irsiy omil, ota-onasida kasallik bo‘lgan bo‘lsa;
- yomon muhit, sifatsiz oziq-ovqatlar va ichimliklar;
- 35 yoshdan keyingi homiladorlikda;
- homiladorlik vaqtida yondosh xastalikda: ortiqcha vazn, kamqonlik, buyrak, jigar, yurak kasalliklari;
- kuchli toksikoz va gestozlar, ko‘p dorilar iste’mol qilish, nosog’lom turmush tarzi;
- 1870oris bachadonda noto‘g‘ri joylashishi;
- homiladorlik paytida infeksion kasalliklar;
- bolaning muddatidan avval tug‘ilishi.

Displaziya qizlarda ko‘p uchraydi

Chanoq-son bo‘g‘imi tug‘ma displaziysi o‘g‘il bolalarga nisbatan qizlarda 5-7 marta ko‘proq uchraydi. Dumbasi bilan tug‘ilgan chaqaloqlarning 50 foizida displaziya kuzatiladi. Homiladorlikning birinchi yarmidagi turli xastaliklar, jumladan, toksikoz kasallikni keltirib chiqaruvchi asosiy omildir. Bo‘lajak onaning yashash va ish joyidagi ekologik holat ham katta ahamiyatga ega. Bular displaziya rivojlanishiga va hatto, son suyaklarining tug‘ma chiqishiga olib keladi. Ayrim oilalarda son suyagi tug‘ma chiqishiga moyillik nasldan naslga o‘tadi.

Son suyagining tug‘ma chiqishi

Son suyagining tug‘ma chiqishi — tayanch-harakat tizimi tug‘ma nuqsonlarining eng ko‘p uchraydigan turi. Unda chanoq-son bo‘g‘imi barcha elementlarining noto‘g‘ri rivojlanishi oqibatida bo‘g‘im kosachasi va son suyagi boshchasining bir-biriga nisbatan to‘liq siljishi kuzatiladi. Son suyagi boshchasi bo‘g‘im kosachasidan tashqariga va yuqoriga siljiydi.

Qanday aniqlash mumkin?

Bolaning tayanch-harakat va asab tizimi to‘liq rivojlanmagani sabab son suyagi tug‘ma chiqishida og‘riqlar kuzatilmaydi. Bolalar shifokori klinik, ultratovush apparati va rentgenografiya usuli yordamida tashxis qo‘yishi mumkin.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Agar bolada quyidagi belgilar kuzatilsa, ortopedga murojaat qilish zarur:
Bir yoki ikkala son ochilishining chegaralanishi. Bolaning oyoqlari chanoq-son va 188oorish188‘g‘imlaridan to‘g‘ri burchak ostida bukib, yon tomonga ochiladi. Me'yorda uning ochilish burchagi 160 — 180 daraja. Displaziyada bu burchak kamayadi.

«Qirsillash» belgisi chaqaloqlarda uch oylikkacha kuzatiladi. Buni aniqlash uchun chaqaloqning oyoqlari chanoq-son va 188oorish188‘g‘imlaridan to‘g‘ri burchak ostida bukib turib, o‘rta chiziqqa keltirilib, so‘ngra sekin ochiladi, shunda chiqish tomonda qirsillash eshitiladi.

Oyoqlarning kaltaligi. Chaqaloqning oyoqlari chanoq-son va 188oorish188‘g‘imlaridan bukilib, qoringa simmetrik yaqinlashtiriladi va tizzalar sathida kaltalik aniqlanadi.

Teri burmalari asimetriyasi. Me'yorda bolaning oyoqlari yozilgan va birlashtirilganda old va orqa sonda teri burmalari simmetrik bo‘ladi. Ularning asimetriyasi o‘scha tomonda chanoq-son bo‘g‘imi displaziyasi borligini ko‘rsatadi.

To‘liq forig‘ bo‘lish mumkin

Aniq tashxis qo‘yilgandan so‘ng bemorning 188oori va kasallik darajasiga qarab, ambulator sharoitda yoki statsionarda davolash ishlari olib boriladi. Davolash davomiyligi o‘rtacha to‘qqiz-o‘n bir oyni tashkil etadi. Kasallik o‘z vaqtida aniqlanib (3-12 oylikkacha), shifokor ko‘rsatmasiga rioya qilinsa, undan to‘liq forig‘ bo‘lish mumkin.

Belgilari:

Tajribasiz ota-onalar buni sezmay qolishi ham mumkin. Displaziya yangi tug‘ilgan chaqaloqni bezovta qilmaydi, oyoqlarni bir biriga nisbatan qisqarishi, teridagi burmalarni simmetrik emasligi, oyoqlar harakati hajmi cheklanganligi kuzatiladi. Shularni hisobga olib, bolaning dastlabki oylarida, albatta, ortoped-travmatolog ko‘rigiga olib 188oorish zarur. Kerak bo‘lsa, qo‘sishmcha tekshiruvlar rentgen, ultratovush diagnostikasi yordamida kasallik aniqlanadi.



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Davolashni shifokor nazoratida olib 189oorish kerak. Bunda oyoqlarga to‘g‘ri pozitsiya berish, faol harakatchanlikni saqlash, fizioterapiya muolajalari va uzlusiz butunlay sog‘aygunga davolash zarur.

Asoratlarning oldini olish uchun kasallikni bola hayotining birinchi oylarida tashxislash va davolash muhim ahamiyatga ega. Agar o‘z vaqtida davolanmassa, bolaga jiddiy muammo tug‘dirishi mumkin. Masalan, bola yurishni boshlaganda oqsoqlanish paydo bo‘ladi. Chaqaloq oyog‘ini yon tomonga siljita olmaydi yoki katta qiyinchiliklar bilan bajaradi. Bola kattalashgan sari davolanmagan displaziya oqibatlari yomonlashadi. Yurish shakli “o‘rdak yurish” deb nomlanadigan shaklga o‘tadi. Bunday bolaning harakatchanligi cheklanadi, boshqa bo‘g‘imlar ham deformatsiyalanadi: umurtqa pog‘onasida skolioz, oyoqlarni tiza va tovon bo‘g‘imlari qiyshayishi kuzatiladi. Keljakda oyoq mushaklari yaxshi rivojlanmaydi. Toz va tiza bo‘g‘imlariga muntazam og‘riq qo‘shiladi. Umurtqa pog‘onasining qiyshayishi ichki a’zolar faoliyatini ham yomonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://med24.uz/uz/bolezn/displaziya-sustavov>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
3. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. <https://avitsenna.uz/>